

MOVAROUNNAHR ALLOMALARINING ILMIY ME'ROSI

*Qushmatova Madina Valijon qizi**Ashirova Noila Xasan qizi**Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

Annotatsiya: Movarounnahr deb nom olgan hududning tarixini ko‘z oldimizga keltirganimizda shubhasiz bu yurtning jahon ilm faniga katta hissa qo‘shib ketgan allomalari, din olimlari hayolimizga keladi. Ushbu hudud ulamolarining maqsadi ham diniy ham dunyoviy ilmni egallab, o‘z xalqini, millatini ilmiy qilib tarbiyalash, o‘z ilmini boshqalarga ham tarqatishdan iborat bo‘lgan. Ushbu maqolada millatimiz ulamolari ilm-fanga qanchalik darajada hissa qo‘shganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr allomalari, Qur‘oni karim, Hadisi sharif, Madorikut-tanzil, Sirojiya, fiqh, faroiz.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov nutqida “...buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta‘lim olishga intilish tuyg‘usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to‘g‘ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga Islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir”¹ deb uqtirgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz”² deb, bu fikrni yana bir karra ta‘kidladi. Movarounnahr diyori islom nuri bilan munavvar bo‘lganidan so‘ng bu diyori ahlining ko‘pchiligi islomni ochiq qalb bilan qabul qildi. Aytish mumkinki, Movarounnahr aholisining islom diniga kirishi ularning ko‘plab qobiliyatlarining ochilishiga, hayotning ko‘plab jabhalarida o‘zlarining peshqadamliklarini isbot qilishga olib keldi.

Ko‘p o‘tmasdan ilm-fanning va islomning turli sohalari bo‘yicha movarounnahrlik namoyandalar yetishib chiqqan boshladi. Natijada Buxoro, Samarqand, Xorazm, Termiz va Nasaf kabi shaharlar ilm markazlaridan biri sifatida butun dunyoga tanila boshladi. Movarounnahrdan o‘sha vaqtda mavjud bo‘lgan ilmlardan tashqari bir qancha yangi ilmlarga asos solgan ulug‘ zotlar ham yetishib chiqdi. Ilm-fansiz hech bir yurt yoki jamiyat taraqqiyotga erisha olmaydi. Islom madaniyatining gullab-yashnashi,

¹ Toshkentda bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirligi kengashi 43- sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi.

²Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh assambeyasining 72- sessiyasidagi so‘zlangan nutqidan.

musulmon o'lkalarining jahon tarixi ko'rmagan taraqqiyotga erishishi, yurtlarning obod, xalqlarining peshqadam bo'lishi ham Islom dinining ilm-fanga bo'lgan o'ta yaxshi munosabatidan edi. Dunyoda hech bir din, tuzum, falsafa yoki harakat ilm talab qilishni ibodat darajasiga ko'targan emas. Yurtimiz olimlarining ko'pligini tasavvur qilish uchun birgina misol ketirishimiz mumkin. Umar Nasafiyning "Al-Qand fii zikri ulamai Samarqand" nomli kitobida Samarqandga tegishli bir ming o'nta olimning tarjimai holi keltirilgan. Albatta, mazkur kitobda uning muallifiga ma'lum bo'lgan va undan oldin yashab o'tgan ulamolar haqida ma'lumot berilgan, xolos. Movarounnahrning boshqa shaharlari haqida ham xuddi shu gaplarni takrorlashimiz mumkin. Movarounnahr olimlarining ilmiy merosi haqida juda ham qisqa ma'lumotlarni taqdim etib, so'ng aynan meros ilmiga oid ishlari bilan tanishamiz. Aqida ilmni oladigan bo'lsak, bu soha bo'yicha butun Movarounnahr diyorida bir qator ulamolar yetishib chiqdi. "Aqoidu Nafasiy" asarining muallifi "Imomul Huda" Imom Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulholiq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi buyuk buyuk allomalarimiz va mutafakkirlarimizning benazir merosi namunalari ham Markazimizning muzeyi va kutubxonasidan munosib o'rin oladi. Yurtimiz olimlarining ko'pligini tasavvur qilish uchun birgina misol ketirishimiz mumkin. Umar Nasafiyning "Al-Qand fii zikri ulamai Samarqand" nomli kitobida Samarqandga tegishli bir ming o'nta olimning tarjimai holi keltirilgan. Albatta, mazkur kitobda uning muallifiga ma'lum bo'lgan va undan oldin yashab o'tgan ulamolar haqida ma'lumot berilgan, xolos. Movarounnahrning boshqa shaharlari haqida ham xuddi shu gaplarni takrorlashimiz mumkin³. Movarounnahr olimlarining ilmiy merosi haqida juda ham qisqa ma'lumotlarni taqdim etib, so'ng aynan meros ilmiga oid ishlari bilan tanishamiz. Aqida ilmni oladigan bo'lsak, bu soha bo'yicha butun Movarounnahr diyorida bir qator ulamolar yetishib chiqdi. "Aqoidu Nafasiy" asarining muallifi "Imomul Huda" Imom Abu Mansur Moturidiy aqida maktabining rivojiga katta hissa qo'shgan olim Najmuddin Abu Hafs Samarqandiy Nasafiy Moturidiya aqiydaviy mazhabining ko'zga ko'ringan olimlaridan biri ulkan alloma Sa'duddin Mas'ud ibn Umar Taftazoniy . Sirojiddin O'shiy Farg'oni, Abu Shakur Solimiy Keshiy va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Islom olamidagi eng ishonchli olti to'plamning uchtasi – Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasaiylarni yurtimizdan chiqqanligi yurtimiz ulamolarining bu sohadagi o'rinlarini ko'rsatib turibdi. Fiqhning usul va furu'lari bo'yicha esa Movarounnahr ulamolarining soni cheksizdir. Usulul fiqh ilmni rivojlanishida hissa qo'shgan O'rta Osiyolik ulamolar qatorida, Imom Ali ibn Muhammad ibn Abdulkarim, Faxrul Islom Bazdaviy, Imom Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Hofiziddin Nasafiy, Shamsul-aimma Sarxasiy va boshqalarni keltirish mumkin bo'lsa,

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Movarounnahrlik ulamolarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.

furu'ul fiqh borasida ijod qilgan allomalarimizdan Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad Kosoniy, Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy, Imom Sodrush shariy'a Ubaydulloh ibn Mas'ud Buxoriy, Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr Abduljalil Marg'inoniy, Imom Abu Bakr Muhammad ibn Abu Sahl Saraxsiy, Shamsul Aamma Abdulaziz Halavoniy, Qozixon nomi bilan mashhur Faxriddin Hasan ibn Mansur O'zgandiy Farg'oniy va boshqa ko'plab allomalarni sanash mumkin bo'ladi. Faqih Samarqandiy ham o'zlarining "Bahrul ulum" deb nomlangan tafsir kitoblarida Niso surasidagi meros haqidagi oyatlarga atroflicha to'xtalib o'tadi. Qur'oni karimda har bir vorisning ulushi bayon qilinganidan so'ng ushbu hukm vasiyat va qarzlarni ado qilinganidan keyin amalga oshirilishiga urg'u berilgan. Lekin fuqaholar qarzni to'lash vasiyatdan muqaddam ekanligiga ittifoq qilishgan. Bu holatni Samarqandiy shunday izohlaydi. Qur'onda vasiyat oldin keltirilganiga qaramay fuqaholar qarzni avval to'lashlikka hukm qilishlariga ikkita sabab bor. Birinchisi, Hazrat Alining qarzni vasiyatdan avval to'lashlikka qilgan ko'rsatmalari bo'lsa, ikkinchisi, insonning tabiatidagi molga bo'lgan muhabbat. Ya'ni, mayyit vasiyat qilgan insonlarga molni yetkazib berishda vorislar gohida baxillik sababidan, gohida esa shunchaki beparvolik tufayli kamchilikka yo'l qo'yadilar. Shular sababidan aslida vasiyat qarzdin keyin bajarilishi kerak bo'lsada, Qur'onda oldin keltirib o'tilgan, toki insonlar uni qarz kabi hukmga ega sifatida ko'rib, uni ado qilishga shoshilishsin. Bulardan tashqari yurtimiz ulamolari tomonidan fanga oid yozilgan mustaqil, ya'ni, "Kitobul faroiz" kabi kitoblar ham bor. Quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz:

"Faroiz" -Abu Nasr al-Marvaziy. Muallif o'z kitobi haqida: "Faroiz haqida kitobimiz ming sahifadan oshadi" degan.

"Faroiz at-Temirtoshiy" – Zahiriddin Ahmad ibn Ismoil Temirtoshiy Xorazmiy Hanafiy

"Faroiz al-Usmoniy" – Burhonuddin Abul Hasan Aliy ibn Abul Hasan Aliy ibn Abu Bakr Marg'inoniy. ("Al-Hidoya"ning sohibi)

Shu o'rinda yurtimiz madrasalarida qadimdan o'qitilib kelingan meros kitoblaridan biri Sirojiddin Muhammad ibn Mahmud ibn Abdurrashid Sajovandiyning "Sirojiya" nomi bilan tanilgan "Faroiz as-Sirojiya" kitobidir.

"Sirojiya"ga yozilgan sharhlar orasida mashhuri va odamlar orasida eng ko'p qo'lma-qo'l bo'lgani alloma Sayyid Sharif Aliy ibn Muhammad Jurjoniyning "Al-Faroiz ash-Sharifiyya" nomli kitobidir. Bu sharhga ham juda ko'p hoshiya va ta'liqotlar yozilgan. Sayyid Sharif bu asarini 804-hijriy yilda Samarqandda yozib tugatgan.⁴

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, ulamolarimizning fiqh va ayniqsa, uning katta boblaridan biri bo'lgan faroiz sohasida qilgan ishlari beqiyos ekan. Ular tomonidan

⁴ O'rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi. Ziyodov Sh. rahbarligidagi olimlar jamoasi. 2016. Rasulova; –T., Dustjonov; S.Xasanov "Xorazm Ma'mun akademiasining olis-yaqin yulduzlari"

ilmning ayrim muhim masalalarini hal qilishda va dalil-hujjatlarini ochib berishda katta ishlar amalga oshirilganini hamda islom ulamolari tomonidan ushbu xizmatlarni yuksak e'tirof qilinganini alohida ta'kidlash o'rinli ekan. Umuman, buyuk ajdodlarimiz dahosi va zakosining ko'zgasiga aylanib, islom dini bilan bog'liq boy va noyob merosni ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganish orqali uning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borish, xalqimiz, birinchi navbatda, yoshlarning ma'naviy dunyosini kengaytirish uchun harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mavorounnahrlik ulamolarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.
2. O'rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi. Ziyodov Sh. rahbarligidagi olimlar jamoasi. 2016. Rasulova; –T., Dustjonov; S.Xasanov “Xorazm Ma'mun akademiyasining olis-yaqin yulduzlari”. T– 2005 y
3. Zamaxshariy M. Tafsiri kashshof, 1-juz, 223-b. “Darul Ma'rifa”, Bayrut – 2009.
4. Samarqandiy. “Bahrul ulum”, I-juz, 336-338-b. “Darul kutubil ilmiyya”, – Bayrut 1993.
5. Nasafiy, Abul Barakot. “Madoriku-t-tanzil”
6. Nasafiy, Abul Barakot. “Kanzu-d-daqiq”.
7. Badaxshoniy A. Tavdihu faroizi-s-sirojiya.
8. Sayyid Sharif Jurjoniy. “Sharifiya sharhi sirojiya”.
9. “Sharq allomalarining ilmiy me'rosi – renesans poydevori” A. Anvarov “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi.”